

Kitob o'qimas bola

Zahro Hasanova



Yashiringan so'zlarni toping va ularni bir mavzu ostida birlashtiring.



she'rkrmasalohikoyasmuallifoxlvara
rqqog'ozlg'ozmoqhanimzorgetshoirk
yozuvchijrdo'quvchifzuo'qimoqklyharfn
ahgnbkitobzhalifborihsiyohgdamatnjas



O'qing.



Kitob o'qimas bola
Ko'rdi qo'rqinchli bir tush.
Kitoblari do'q qilar,
Qo'llari tugilgan musht.

Der, bizni unutgansan,
Har yonga irg'itgansan.
Senga telefon bo'lsa,
Tinmayin ishlab tursa.

Vaqtning qadriga yetgan,
Bolalarni topamiz.
Ular bilan do'stlashib,
Fikrini uyg'otamiz.



Holimiz* bo'ldi xarob,
Endi ketamiz qochib,
Bor xazinamiz bilan
Yaxshilikka yo'l ochib.

Boshqa kitoblar uning
Gapiga qo'shilishdi.
Yalqov, tanbal* boladan
Juda xafa bo'lishdi.

So'ngra tushdilar yo'lga,
Qo'llarni berib qo'lga.
Qaramay orqasiga,
Yirtiq muqovasiga.

Shu payt o'qimas bola
Uyg'onib ketdi cho'chib.
Kitoblarning barini
Dedi avaylab, quchib:

– Mendan xafa bo'lmanglar,
Tashlab ketmang, iltimos.
Tekislab, yelimlayman,
Imkon beringlar biroz.

Telefonimdan faqat
Foydalanay zarur payt.
Kompyuter, televizorga
Kitobdan keyin navbat.





Ularni silab-siypab,
Javoniga taxladi.
Doimo do'st bo'lmoqqa
Chin yurakdan ahdladi*.



hol – ahvol

tanbal – erinchoq, dangasa

ahd – va'da, so'z berish




1. Bola qanday tush ko'rdi?
2. Kitoblar nega xafa bo'lishdi?
3. Bola kitoblarga nima dedi?
4. Ushbu satrlarni qanday tushundingiz:

*Doimo do'st bo'lmoqqa
Chin yurakdan ahdladi.*



**Maqollarni o'qing va ma'nosini
tushuntirib bering.**

- Kitobsiz aql – qanotsiz qush.
- Kitob – donishmandlikning ko'zgusi.
- Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stlardir.



She'rni ifodali o'qishga tayyorlaning.

